

## **KICHIK YOSHDAGI TIL O'RGANUVCHILARGA INTERFAOL USULLARDA XORIJ TILINI O'RGATISH**

*Safoyeva Lobar Sano qizi.*

*Samarqand davlat chet tillari instituti Ingliz tili 2 fakulteti*

*Maktabgacha va boshlang'ich ta'limda ingliz tili yo'nalishi 2-bosqich talabasi .*

*Ilmiy rahbar: N.N. Zubaydova.*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada kichik yoshdagi xorij tili o'rganuvchilarga interfaol usullardan foydalanib til o'rgatish xususida so'z boradi. Bolalarga yangicha metodlardan foydalanib dars mashg'ulotlarida samarali natijaga erishish va xorijiy so'z boyligini oshirish maqsadida interfaol, qiziqarli o'yinlardan samarali foydalanish usullari xususida so'z boradi.

**Kalit so'zlar:** Tarqatma materiallar, Muloqot, baholash, mashg'ulotlar, konsultatsiya, mustaqil ish , qiziqarli o'yinlar.

**Annotation:** This article focuses on teaching language to junior foreign language learners using interactive techniques. Children are told about the methods of effective use of interactive, interesting games in order to achieve an effective result and increase foreign vocabulary in lessons using innovative techniques.

**Key words:** Handouts, communication, evaluation, training, consultation, independent work, fun games.

Yurtimiz mustaqillikka erishgandan so'ng xorij tilida yuritiladigan so'zlar kirib keldi va buni natijasida xorij tilini o'rganish va o'rgatish avj oldi. Hozirgi kunda xorij tiliga qiziquvchilar juda ham ko'p jumladan; Maktab, litsey, kollej va oliy ta'lim muassasa bilim oluvchilariga balki, turli kasb egalariga ham xorij tilini o'rganish va o'rgatish yo'lga qo'yilgan. Buning sababi xorij tilini o'rganish ilm-fan taraqqiyoti uchun muhim omil hisoblanadi. Hozirda ta'lim metodlarini takomillashtirish sohasidagi asosiy

yo'nalishlardan biri interfaol ta'lim va tarbiya usullarini joriy qilishdan iborat . Interfaol usullarni qo'llash natijasida o'quvchilarning mustaqil fikrlash, o'z fikrini bayon qilish, tahlil qilish, xulosalar chiqarish, bahs olib borish ko'nikmalari shakllanib , rivojlanib boradi. Interfaol usullarda har bir o'qituvchi tomonidan mavjud vositalar va o'z imkoniyatlari darajasida amalga oshiriladi . Bunda har bir o'quvchi o'z motivlari va intellektual darajasiga muvofiq ravishda turli darajada o'zlashtiradi. Interfaol ta'lim metodlarini amalga oshirish uchun dars jarayoni o'qituvchi tomonidan oqilona tashkil qilinishi, o'quvchilarning faolligini rag'batlantirish, o'quv materiallarini qiziqarli shakllarda tuzish va uni kichik bo'laklarga bo'lib, ularni mazmunini ochishda aqliy hujumdan foydalanish, bahs-munozara, rolli o'yinlar, loyiha kabi metodlar qo'llash. Bu metodning asosiy maqsadi o'quvchini mustaqil fikrlashga o'rgatibgina qolmay mustaqil hayotga ham tayyorlaydi. Interfaol metodlar deganda – ta'lim oluvchilarni mustaqil fikrlashga undovchi va faollashtiruvchi, ta'lim jarayoning markazida ta'lim oluvchi tushuniladi, bu metod qo'llanilganda ta'lim beruvchi ta'lim oluvchini faollikka chorlaydi. Ta'lim oluvchi markazda faol bo'lganida quyidagi foydali jihatlari namoyon bo'ladi:

1. Darsda to'liq faollik

2. Ilgari orttirilgan bilimining oshishi

3. Amalda bajarish orqali o'rganish

Albatta har bir o'quvchining bilim salohiyati turlicha shunday ekan o'quvchilarga turli xil interfaol o'yinlar orqali dars o'tish lozim, tabiiyki kichik yoshdagi bilim oluvchilarga o'yin o'ynash juda qiziq . Turli o'yinlar bor ammo ularni to'g'ri metodda foydalanib o'quvchilarga o'rgatish juda ham murakkab . Interfaol usullardan biri bu “kichik guruhlarda ishlash” ,ya'ni guruhlar 5-6 kishidan iborat bo'lib guruhga bo'linishadi, aniq ko'rsatma beriladi: Mustaqil ish, test, krosvord. Bitta o'quvchi mustaqil ravishda o'z ustida tayyorlanib savol tuzib kelgan bo'ladi, boshqa o'quvchilarni test, krasvord va mustaqil ishlarini baholaydi. Assistent yoki ekspert o'quvchi tayinlanadi, guruhlariga sardorlar tayinlanadi, O'qituvchi esa jarayonni qo'llab-quvvatlab turadi, turli xil qog'ozdan yasalgan shakillarning ichiga har bir o'quvchining ismi sharifi yoziladi va

doskaga ilib qo'yiladi, shu shakilning to'g'risiga o'quvchiga ball qo'yiladi, o'quvchilarning partalarini ustida har bitta o'quvchi uchun puffaklar bo'ladi va puffakning ichida yashirin savollar ham bo'ladi. Kim shu savollarga javob to'g'ri topsa ball ko'rsatkichi yuqoriga ko'tariladi. Aksi bo'lsa aksincha ball yuqoridan pastga tushadi, bizga doskaning chap tarafiga plakat qog'ozga har bir o'quvchining ismi sharifi yozilgan bo'ladi va umumiy reytinglari belgilab boriladi, oy oxirida 1-o'rindan, 3-o'ringacha sovg'alar bilan rag'batlantiriladi. Eng reytingi baland o'quvchi rag'batlantiriladi. Buni natijasida o'quvchilar o'rtasida sog'lom raqobat vujudga keladi. Raqobat bor joyda esa albatta, o'sish, yuksalish bo'ladi. Albatta yosh bolalar o'rtasida tortishuvlar bo'ladi, ya'ni nega u sovg'ani olyapti menga yo'q deb o'qituvchi bilan tortishib qolishi hatto o'qimasligi ham mumkin. O'qituvchi bolaga keyingi safar yaxshiroq harakat qilishini uqtirib kichkina rag'batlantirib qo'yishi lozim, o'quvchini to'g'ri yo'lga yo'naltirish ham o'qituvchining vazifasi hisoblanadi. Biz pedagoglar agar bolalar bilan do'stlashsak ular biz bilan birga mashg'ulotlarda ham do'stona bo'lishadi, ya'ni mashg'ulotlar paytida qiynalmaymiz do'st bo'lganimiz uchun ham ular bizning gaplarimizni tinglashadi ammo natijalari unchalik ham yaxshi bo'lmasligi mumkin shuning uchun ikkinchi bosqich ular bilan ko'proq do'stona muloqot qilib qiziqarli mashg'ulotlar olib borish sanaladi. Qo'shiqlar orqali so'z yodlatishimiz mumkin. Mening ham 5 yoshli singlim bor uni kuzatganimda u xo'rozchaning aytgan she'rini u bilan birga takrorlab raqsga tushadi.

Masalan: Men jajji xo'rozcha donlar terib o'zimni qornimni to'q tutaman.

Lalalalala men jajji xo'rozcha rangim qizil, oq, yashil.....

Shu so'zlarni o'z o'zidan qiziqib yodlab olgan bu yoshdagi kichik til o'rganuvchilariga multafilmlar va turli xil qisqa qo'shiqlar orqali dars o'tish ancha samaraliroq. Bu qo'shiqlar orqali yangi lug'atlarni bolalar ancha tez va oson o'rganadi. Yosh bolalarning qiziqishlarini ko'proq qiziqarli videolar, o'yinlar, multafilmlar orqali darsga yo'naltirish mumkin. Tabiat qo'ynida dars o'tish ham qo'l keladi, ya'ni tabiatda uchraydigan gullar, qushlar, hayvonlar, bulutlar, daraxt nomlarini ingliz, rus tilida aytib o'rganish. Masalan ingliz tilida gul-flower, hayvon-animal, bulut-cloud, daraxt-tree

bo'ladi. Shu so'zlarni ingliz tilida tabiat qo'ynida dars o'tish orqali takrorlab o'rganish mumkin. Konsultatsiya orqali mashg'ulotlar olib borish ya'ni bunda 1 ta mavzuni qiziqarli qilib yana o'sha mavzuni qayta takrorlash, chuqurroq tushuncha berish. Baholash har bir o'quvchini albatta baholash kerak 5,4,3,2 dan foydalanmagan holda baholash 2 va 3 salbiy baholari bolaga salbiy tasir ko'rsatadi. Har xil shakillar orqali gul, barg, daraxt kabi shakillardan foydalangan holda baholash. Muloqot har bir o'quvchi bilan albatta alohida alohida shug'ullanish zarur, ularning ota-onalari bilan ham muloqot o'rnatish lozim. Mustaqil ish bunda o'quvchi o'z ustida o'tilgan mavzu haqida ma'lumotlarga o'zi hohlab bilim ko'nokmaga ega bo'ladi. Bu juda ham muhim topshiriqlardan biridir, mustaqil o'rganish biroz qiyin bo'lishi mumkin ammo bolani yoshligidan oz bo'lsa ham mustaqil ishlashga o'rgatish kerak, chunki yuqori sinfga o'tganidan keyin o'z ustida bemalol mustaqil ish bajara oladi. Hid bilish, tam bilish, sezish orqali ham qiziqarli o'yinlar tashkil qilish mumkin. Masalan: o'quvchining ko'zlari yopiq holatda bo'ladi va unga turli xil gullar, mevalar, o'yinchoqlar kabi turli xil shakillarni qo'lga berib inglizcha, ruscha nomini aytishini, meva bo'lsa yeb ko'rib inglizcha, fransuscha nomini aytadi, gullarni hidlab inglizcha, ruscha nomini aytadi. Albatta bu o'z samarasini ko'rsatadi. Xulosa qilib aytganda har qanday yoshdagi o'quvchilarga qiziqarli o'yinlar orqali dars o'tish ancha samaraliroq. Yuqorida aytib o'tilgan metodlarda ishlash bolalar uchun ham o'qituvchi uchun ham qiziq, o'yinlar dars jarayonini qiziq o'tishini ta'minlaydi. O'quvchi o'yinni ko'ngilochar mashg'ulot deb qabul qiladi va o'yin jarayonida zerikmaydi, o'zini erkin his qiladi. O'quvchilar xorijiy tillarni tez va oson o'zlashtirishadi. O'yin nafaqat bilimni oshiradi balki, o'quvchilarni hamfikir, do'stona munosabatda bo'lishga undaydi. Bolalar o'yin paytida bir birlari bilan doimiy aloqada bo'ladilar bu esa ularning nutqining rivojlanishiga olib keladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. The teaching of English for specific purposes. Nilufar Nematillaevna Zubaydova. 2019
2. The importance of teaching vocabulary. Nilufar Nematillaevna Zubaydova. 2019
3. <http://shuhratbek.uz>
4. <http://manzura90.zn.uz>